

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KICHIK GURUHLARNI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Muxammadiyeva X. K. –

*Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’lim”fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasи v.b.dos.(PhD)*

Muxammadieva J.K.-

*Surxondaryo viloyati 4-umum ta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi*

“Bizning maqsadimiz – O‘zbekistonni jadal islohotlar, ilm-fan, ta’lim va innovatsiyalar orqali erishish mumkin bo‘lgan rivojlangan davlatga aylantirish”.

Shavkat Mirziyoev

Annotation: This article outlines how to work in small groups, which is one of the best options for achieving success in secondary schools, and to improve students' cognitive performance, and to improve their ability to meet international standards.

Keywords: teacher, student, training, time, optimization, differentiation, integration, ability, talent, interest

Аннотация: В этой статье рассказывается, как работать в небольших группах, что является одним из лучших вариантов достижения успеха в средних школах, улучшения познавательных способностей учащихся и повышения их способности соответствовать международным стандартам.

Ключевые слова: учитель, ученик, обучение, время, оптимизация, дифференциация, интеграция, умение, талант, интерес

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida barchamizning asosiy vazifamiz, bajarayotgan ishlarimizning natijadorligiga erishishga qaratilishi zarurligini belgilab berdi.

Shunday ekan, biz pedagoglar ta’limda sifat va samaradorlikka erishishni, avvalo har bir darsning sifati va samaradorligini, ya’ni natijadorligini ta’minlashdan boshlashimiz kerak. Buning uchun o‘qituvchi ishida optimallikka erishishi zarur. Optimallik deganda, o‘qituvchining darslarga tayyorgarlik ko‘rishi, uni tashkil etishi va o‘tkazishida kam vaqt, kam kuch va kam mablag‘ sarflab, eng yuqori darajadagi natijador ta’lim maqsadlariga eirishishi tushuniladi.

Darsning natijadorligiga erishishning eng optimal variantlaridan biri differensial ta’lim, ya’ni o‘quvchilarining iqtidori, qiziqishlari va o‘zlashtirishlarini qat’iy e’tiborga olgan holda tabaqlashtirib o‘qitishdan iborat ekanligi, jahon rivojlangan mamlakatlari, jumladan bizning ilg‘or o‘qituvchilarimiz tajribasida o‘z tasqig‘ini topib

bo‘lgan.

Darsda o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib o‘qitish, umumiyligi o‘rtalim maktablarining 5-sinflaridan boshlanib, differensial ta’lim shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichik guruhlarni tashkil etishning tasodifiy, ixtiyoriy va majburiy shakllari mavjud. Faraz qilamiz sinfda 25 ta o‘quvchi bo‘lsin. Bunday holda, biz taklif etayotgan, 5 sinflardan boshlanib, 11-sinflarda ham tarkibi o‘zgarmay davom etadigan, doimiy va majburiy, beshtadan kichik guruhlarni shakllantirish metodikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Кичик гурухлар	1-кичик гурух	2-кичик гурух	3-кичик гурух	4-кичик гурух	5-кичик гурух
Устун лар Сатрлар	1-устун	2-устун	3-устун	4-устун	5-устун
1-сатр	1-суст ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	1-аълочи ўқувчи исми шарифи	1-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	1-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	1-аълочи ўқувчи исми шарифи
2-сатр	2-аълочи ўқувчи исми шарифи	2-суст ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	2-аълочи ўқувчи исми шарифи	2-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	2-ўртача ўзлаштирувч и ўқувчи исми шарифи
3-сатр	3-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	3-аълочи ўқувчи исми шарифи	3-суст ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	3-аълочи ўқувчи исми шарифи	3-ўртача ўзлаштирувч и ўқувчи исми шарифи
4-сатр	4-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	4-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	4- аълочи ўқувчи исми шарифи	4-суст ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	4-яхши ўзлаштирувч и ўқувчи исми шарифи
5-сатр	5-аълочи ўқувчи исми шарифи	5-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	5-ўртача ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	5-яхши ўзлаштирувчи ўқувчи исми шарифи	5-суст ўзлаштирувч и ўқувчи исми шарифи

Jadvalni o‘qishga doir eslatma: 3x4 ning ma’nosini: 3-ustun va 4-satrning kesishgan joyidagi

o‘quvchini bildiradi. Bu o‘quvchi o‘zini “Men 3-kichik guruhning 4-o‘quvchisiman”, -deb gapirishga o‘rganishi kerak.

Shuningdek, 1x5 ning ma’nosini: 1-ustun va 5-satrning kesishgan joyidagi o‘quvchini bildiradi. Bu o‘quvchi o‘zini “Men 1-kichik guruhning 5-o‘quvchisiman”, -deb gapirishga odatlanishi lozim va hokazo.

O‘qituvchi o‘zi o‘qitadiga sinfda kichik guruhlarni shakllantirish ishini osonlashtirishi uchun jadvaldagi kataklarga, undagi yozuvlarga mos ravishda o‘quvchilarining ismi shariflarini yozib chiqishlari kifoya.

Kichik guruhlardagi o‘quvchilarni o‘rinlashtirish kombinatsiyasi muhim zaruriy talablarga javob berishi talab etiladi:

1)har bir kichik guruhda kamida 1 tadan a’lochi va 1 tadan yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bo‘lishi;

2)mavjud 5 ta kichik guruhralararo o‘quvchilarning aralashuvi (ramziy ma’noda safarga chiqishi)dan, hosil qilinadigan yangi kichik guruhrar shakllanganda ham, ularning har biri tarkibida yana kamida 1 tadan a’lochi va 1 tadan yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bo‘lishi.

3)sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, kichik guruhning doimiy stotsionar o‘quvchilari bo‘lishadi. Dastlabki kichik guruhrar o‘quvchilaridan, yangi kichik guruhrar shakllantirilganda ham, sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘z o‘rnida qolishadi, Ramziy ma’noda aytganda, ular safarga chiqishmaydi.

Ushbu uch talab, taklif etilayotgan jadvalda e’tiborga olingan. Masalan, 5 ta kichik guruhlardagi o‘quvchilar o‘zlarining raqamlariga mos yangi kichik guruhrar hosil qilishganda:

birinchi kichik guruhning 2-a’lochi o‘quvchisi, yangidan shakllangan 2-kichik guruhgaga o‘tsa, 2-kichik guruhning 1-a’lochi o‘quvchisi, yangidan shakllangan 1-kichik guruhgaga o‘tib, dastlabki kichik guruhdagi a’lochi o‘quvchining o‘rnini to‘ldiradi. Biroq, 1-kichik guruhning birinchi va 2-kichik guruhning ikkinchi raqamdagagi sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilari o‘z o‘rinlarida qolishadi.

Shunga o‘xhash, birinchi kichik guruhning 5-a’lochi o‘quvchisi, yangidan shakllangan 5-kichik guruhgaga o‘tsa, 5-kichik guruhning 1-a’lochi o‘quvchisi, yangidan shakllangan 1-kichik guruhgaga o‘tib, dastlabki kichik guruhdagi 5-a’lochi o‘quvchining o‘rnini to‘ldiradi.

Biroq, 1-kichik guruhning birinchi va 5-kichik guruhning beshinchi raqamdagagi sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilari o‘z o‘rinlarida qolishadi va hakoza.

Kichik guruhlardagi faol a’lochi yoki yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilardan biri sardor, o‘quv fani bo‘yicha eng faol va a’lochi bir o‘quvchi komanda boshlig‘i, o‘qituvchi esa trener vazifasini bajaradi. Dars jarayonida kichik guruhrar sardorlari va komanda boshlig‘ining sinf bo‘ylab erkin harakatlanishlariga ruxsat etiladi.

Agar sinfda 28 nafar o‘quvchi bo‘lsa, ularning 25 nafaridan, har biri 5 o‘quvchidan iborat, 5 ta kichik guruhrar shakllantiriladi. Qolgan 3 nafar a’lochi o‘quvchilardan alohida kichik guruh hosil qilinadi. Bu 3 nafar a’lochi o‘quvchi hisobidan, ma’lum sabablarga ko‘ra darsda ishtirok eta olmayotgan o‘quvchilarning o‘rnları to‘ldiriladi.

Kichik guruhlarni shakllantirish va ular bilan ishslashda 5x5x1 (5 ta kichik

guruhim bor, har birida 5 tadan o‘quvchim bor, hammasiga bir xil topshiriq), 5x5x2 (5 ta kichik guruhim bor, har birida 5 tadan o‘quvchim bor, ikki xil topshiriq. 1-, 3-, 5-kichik guruhlarga bir xil topshiriq, 2-, 4-kichik guruhlarga alohida topshiriq), 5x5x5 (5 ta kichik guruhim bor, har birida

5 tadan o‘quvchim bor, har biriga alohida-alohida topshiriq) raqamli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Albatta, sinf o‘quvchilarining o‘quv fanidan o‘zlashtirish darajalarini e’tiborga olgan holda, 5x5x2 va 5x5x5 variatlarda ishlashga o‘tishdan oldin, o‘qituvchi ko‘proq 5x5x1 raqamli metodda ishlab, o‘zining mahoratini oshirib, o‘quvchilarni ushbu metodikaga moslashtirib, “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” shiori asosida ishlashga o‘rgatib

olishi zarur.

Respublikamiz maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan sinflar o‘quvchilari sonidan kelib chiqqan holda 4x4x1, 6x6x1, 7x7x1 va hakoza raqamli metodlardan ham foydalanish mumkin.

Biz o‘tkazgan tajribalar, kichik guruhlarni shakllantirishning 5x5x1 raqamli metodining eng optimal variant ekanligini ko‘rsatdi.

Bundan ko‘rinadiki, ta’limda natijadorlikka erishish uchun sinflardagi o‘quvchilar sonining 25 tadan oshmagani maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining o‘quvchilari bilan kichik guruhlarda ishlashi nafaqat darslarning sifatli va samarali, natijador bo‘lishini, xalqaro baholash tashkilotlari talablariga javob berishlarini ta’minlaydi, shuning bilan birgalikda, ta’limning bosh maqsadi bo‘lgan, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglaydigan erkin fikrlovchi faol fuqarolarni tarbiyalash ishiga o‘zining ijobjiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 avgustdagи PQ-3907 sonli Qarori. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga oid farmon va qarorlari” to‘plami. –Samarqand, 2018.

2. 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-tonli Qarori. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga oid farmon va qarorlari” to‘plami. –Samarqand, 2018.

3. 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF -5538-tonli farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev huzurida 2019 yil 23

avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayoni. – 2019 yil 27 avgust № 19750-xh.

5. 2020 yil 24 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Xalq so‘zi gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar.

6. Ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua //Tuzuvchilar G.Eldasheva, G.Karimova. –Toshkent, 2018.

7. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.

8. X.K Muxammadiyeva, FR Ismatullayeva. ”BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK JARAYONDA BOLANING RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI”. 2022. Jurnal. Central Asian Research Journal for. Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2(2). 77-82. OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY». In the article is lightened the place and importance of didactic game educational technologies

9. Norboy o‘g‘li, H. F. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO’PLAM IYUL 2023 yil. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.

10. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.

11. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang‘ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.

12. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning “fozil odamlar shahri” asari-bugungi kun yoshlarining ma’naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.

13. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida ekologik kompitensiyalarini shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.

14. Hayitov, A., & Yusupova, I. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 1262-1267.

15. Hayitov, A., & Xo‘shboqova, F. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. *Science and innovation*, 1(B7), 1028-1034.

16. Muxammaddeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O‘quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni

rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.

17. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). Бошланғич синфларда дидактик жараёнда боланинг ривожланишини таъминловчи технологияларни такомиллаштиришнинг илмий-педагогик таҳлили. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
18. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
19. Караматова, Д. С. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўкувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 4-9.
20. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
21. Sadinovna, K. D., & Qizi, M. M. M. R. (2022). Boshlangich sinflarda ta'lif sifatini oshirishda texnik vositalardan samarali foydalanish. *Science and innovation*, 1(B2), 152-154.
22. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 1(Архив № 2).
23. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK "UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
24. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
25. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
26. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI. *Science and innovation*, 1(1), 54-61.